

Qabul qilindi: 01.11.2025

Chop etildi: 29.12.2025

UDK:1:111:378 (575.3)

“MA’NAVİY MAKON” TUSHUNCHASI, UNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Mamatkulov Eldor Safarovich,

*Termiz davlat universiteti “Falsafa” kafedrası o‘qituvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

«ПОНЯТИЕ «ДУХОВНОЕ ПРОСТРАНСТВО», ЕГО СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ»

Маматкулов Элдор Сафарович,

*Преподаватель кафедры философии, Термезский
государственный университет, доктор философии (PhD) по
философским наукам*

THE CONCEPT OF “SPIRITUAL SPACE”, ITS ESSENCE AND MANIFESTATION FEATURES

Mamatkulov Eldor Safarovich,

*Lecturer, Department of Philosophy, Termiz State University
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy*



E-mail:

mamatkulov@tersu.uz

Orcid: 0009-0002-

7284-8978

Annotatsiya: Ushbu maqolada “ma’naviy makon” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada falsafiy nuqtai nazardan ma’naviy makonning tarkibiy elementlari, uning inson ongidagi o‘rni va jamiyatdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ma’naviy makon orqali insonning ruhiy, axloqiy va madaniy jihatlari qanday rivojlanishi ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari ma’naviy makon tushunchasini chuqurroq anglash va uni amaliy sohalarida qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy makon, mazmun-mohiyat, namoyon bo‘lish, inson ong, falsafa, ruhiy rivojlanish, jamiyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие «духовное пространство», его сущность и особенности проявления. Статья анализирует структурные элементы духовного пространства с философской точки зрения, его роль в сознании человека и значимость в обществе. Также рассматривается, как духовное пространство влияет на развитие духовных, нравственных и культурных аспектов личности. Результаты исследования помогают глубже понять концепцию духовного пространства и возможности её практического применения.

Ключевые слова: духовное пространство, сущность, проявление, сознание человека, философия, духовное развитие, общество.

Annotation: This article examines the concept of “spiritual space”, its essence, and features of manifestation. From a philosophical perspective, it analyzes the structural elements of spiritual space, its role in human consciousness, and its significance in society. The study also highlights how spiritual space contributes to the development of a person’s spiritual, moral, and cultural dimensions. The results provide a deeper understanding of the concept of spiritual space and its potential applications in practice.

Key words: spiritual space, essence, manifestation, human consciousness, philosophy, spiritual development, society.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). “Ma’naviy makon” deb nomlanadigan tushuncha va u ifodalaydigan voqelikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyatlari va insonga ta’siri masalalari mutaxasislarni ko‘p asrlardan buyon qiziqtirib keladi. Bu masalada “Avesto” zamonlaridan bugungi kunlargacha ko‘plab nazariya va ta’limotlar yaratilgan, konsepsiyalar va ilmiy-amaliy dasturlar ishlangan, turli tillarda va xilma-xil yo‘nalishlarda asarlar nashr qilingan. Bu jihatdan sobiq ittifoqning parchalanishi natijasida milliy respublikalarning tashkil topishi va mustaqil rivojlanishi, ma’naviy jarayonlarni o‘rganish masalasini dolzarblashtirdi.

Bundan tashqari, jamiyatimiz ma’naviy makonini mustahkamlash bilan bog‘liq faoliyat natijalarini zamonaviy ma’naviyatshunoslikning yaxlit konseptual paradigmalari asosida tahlil qilishga alohida e’tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). “Ma’naviy makon” tushunchasi shak-shubhasiz “ma’naviyat” kategoriyasiga tayanadi [4] va uning asosida vujudga kelgan albatta. Shu sohadagi mutaxasislardan biri A.Erkaev “ma’naviyat” tushunchasiga bunday ta’rif beradi: “Ma’naviyat – ijtimoiy ongning nisbatan umumiy (umummilliy) ahamiyat kasb etgan, e’tiqod va qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan sobit ehtirolari, tushunchalari, me’yorlari, ijtimoiy mo‘ljallari, amollaridir, ularning badiiy, ilmiy, falsafiy, diniy merosda, urf-odatlarda obyektivlashgan tizimi hamda millatni muayyan maqsadlarga erishish uchun yo‘naltiradigan milliy iroda, milliy g‘urur va or-nomusdir. U jamiyatda qaror topgan va insonning asl mavjudligini ta’minlaydigan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir” [5].

O‘ziga xos ma’naviyatga va o‘z ma’naviy makoniga ega bo‘lmagan inson va millat bo‘lmaydi. Millat ma’naviyatidagi ana shu keng ma’nodagi o‘ziga xoslik orqali mustaqil subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda ham ma’naviyat va ma’naviy makonga xos voqeliklar millatlarni bir biridan farq qildiruvchi eng yorqin, ko‘zga tashlanuvchi omillardan biri xisoblanadi. Masalan, uyat, or-nomus, diyonat, e’tiqod, vijdon, sharm-hayo, g‘urur, imon, adolat, poklik, halollik, vafodorlik kabi fazilatlar qaysidir ko‘rinishlarda

hamma millatlarda bo‘lishi mumkin, ammo ularning amal qilish darajalari, yoxud barchalarining mukammal shaklda namoyon bo‘lishi turli millatlarda bir xil bo‘lmaydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Hozirgi kunda mamlakatimizda ma’naviy makonning ijtimoiy funksiyalari quyidagi shakllarda namoyon bo‘lmoqda:

Ta’sir ko‘rsatish va tarbiyalash funksiyasi har bir inson farzandini voyaga yetishi va kamolotga erishishi, uning ma’naviy qiyofasida ezgu g‘oyalarga mos xislatlar shakllanishiga yordam beradi. Ayni paytda ushbu funksiya ma’naviy hayot sofligini saqlashga qodir avlodni voyaga yetkazish, jamiyatni isloh qilish va yangilash uchun mas’ul islohotchilar avlodini yetishtirish omili sifatidagi o‘rni va ahamiyatini namoyon qiladi [4].

Himoyalash va moslashuv funksiya insonning jamiyat bilan munosabatlari va atrof-muhit o‘rtasidagi muvofiqlikni saqlashga yordam beradi.

Semantik-signifikativ funksiya ma’naviy makonga xos tushuncha va atamalar, belgi va ma’no, nomlar va mavzular, timsollar va tamoyillar tizimini ishlab chiqish va ushbu sohadagi faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [3]. Har bir kishi yoki muayyan xalq o‘z ma’naviy makoniga hos ushbu vositalarga tayanadi, ulardan foydalanadi hamda ularni amaliy faoliyatida qo‘llaydi.

Axborotlarni o‘zlashtirish va yig‘ish funksiyasi ma’naviy makonga doir voqea va hodisalar, sanalar va jarayonlar haqidagi ma’lumotlar va xabarlarni yig‘ish va saqlash vazifasini bajaradi. Bunda tabiiy xotira yoki tarixiy ma’lumotlarni, kundalik xabarlarni narsalarga yozish, yig‘ish va saqlash (qo‘lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, ohangrabo yoki raqamli yozuvlar) orqali amalga oshiriladi.

Kommunikativ funksiya turli ijtimoiy-ma’naviy aloqa almashinuvi, xilma-xil munosabatlar jarayonida insonning mohiyati va o‘zligini saqlashi, jamiyatning tuzum sifatida mavjudligini va uning taraqqiyotini ta’minlaydi [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). “Ma’naviy makon” tushunchasini tavsiflashda unga xos jamoaviylik,

umuminsoniylik va milliylik, tarixiylik va zamonaviylik, an'anaviylik va vorisiylik, insonparvarlik va bag'rikenglik kabi tamoyillarning alohida ahamiyatga molikligini ta'kidlash lozim.

Yangi O'zbekistonning shakllanayotgan zamonaviy ma'naviy makoni avvalo, Sharq qadriyatlariga asoslanadi, albatta. Bunda sharqliklarga xos jamoaviylik tamoyili muhim ahamiyatga ega [4].

Ma'lumki Sharqda insonlar o'zini jamoasiz, mahalla-ko'ysiz tasavvur qila olmaydi. Deylik, G'arb odami yovvoyi hayvonlarni yakka o'zi ovlashi uchun turli vositalar (qopqon, tuzoq, qurollar) o'ylab topishi, ularni borgan sari takomillashtirib borishi kerak. (Mana, G'arbg xos ixtirochilik va texnik taraqqiyotning ibtidosi!)

Sharqliklar esa jamoa bo'lib, ko'plashib, aytaylik, ov hayvonlarini hech qanday qurolsiz qo'lga tushirishi mumkin. ("Ko'pdan quyon qochib qutulmas", degan maqol Sharqdan chiqqan bo'lsa ajab emas!)

G'arb odami yakka o'zi bir necha oylab bajargan ishni Sharq vakili jamoa ishtirokida, hashar yo'li bilan bir necha soatda uddalaydi. Hatto, kutganidan bir necha marta ko'proq mehmon kelishi ham mezbinni cho'chitolmaydi. Chunki: "Mehmon kelsa eshikdan – rizqi kelar teshikdan". Uyiga sig'magan mehmonlarni hech ikkilanmay, qo'shni xonadonga chiqarishi mumkin (Qo'shnilar mehmonlarni uylariga olib ketishadi). Bu ham jamoaviylikning sharofati. "Odam taftini odam oladi", degan mehrga liq to'la jumla faqat o'zbeklarga xos bo'lsa ajab emas.

Mahallada insonlar bir-birlarini nafaqat taniydi, balki, "Bir farzandga yetti qo'shni – otana", – degan tushunchaga amal qiladi. Islomiy aqidalarga ko'ra, to'rt tomoningizdagi 40 ta xonadon sizga qo'shni maqomida bo'ladi. Qo'shni haqqi esa nihoyatda ulug' sanaladi.

Shunday ekan, har bir oila o'z "qal'asi"ga qamalib yashashi Sharqqa (jumladan, o'zbeklarga) xos emas. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Samarqand shahri atrofida Sohirqiron bobomiz qurdirgan, bir-biridan go'zal bog'larga, hukmdor oilasi a'zolaridan tashqari, oddiy xalq ham bemalol kirib-chiqqan. Ushbu tarixiy ma'lumot ham sharqona mentalitet va bag'rikenglik sifatlariga yaqqol misol bo'la oladi.

Sharqqa xos jamoaviylikning ayrim mulohazali jihatlar ham mavjud. Ochig'ini aytganda, jamoa bilan birga bo'lish insonning ayblarini biroz yashiradi. U ko'pchilikka qo'shib ketganidan keyin hammaning yutug'i uniki ham bo'ladi. Balki bu insonning o'z kuchiga ishonmasligidandir? Doimo jamoatchilik bilan birga bo'lish insonning harakatlarini biroz cheklab qo'ymaydimi? U har doim "Odamlar nima der ekan?" – degan xayolda yurmaydimi? Negaki, biror jamoaga kirgandan keyin uning yozilmagan "qonun"lariga amal qilishga majbur bo'lasiz.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, "ma'naviy makon" tushunchasi insonning ruhiy-axloqiy kamolotini, uning dunyoqarashi va hayotga munosabatini belgilovchi muhim falsafiy kategoriya hisoblanadi. Ma'naviy makon shaxs ongida mavjud bo'lgan qadriyatlar, e'tiqodlar, axloqiy me'yorlar va madaniy an'analarning uyg'unlashuvi orqali shakllanadi hamda jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'naviy makonning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash, uni rivojlantirish jarayonlarida ma'naviyatli avlodni tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, ma'naviy makon jamiyat barqarorligi va ma'naviy-axloqiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Bekmurodov Mansur. O'zbek mentaliteti. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2004.
3. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1997.
4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2009.
5. Ильин И. А. Теория права и государства. – Москва: издательство "Зерцало", 2003 г.
6. Право цифровой среды (монография) (коллектив авторов; под ред. к.ю.н., доц. Т.П. Подшивалова, к.ю.н., доц. Е.В. Титовой, к.ю.н., доц. Е.А. Громоной). – "Прспект", 2022 г.